

QANOTSIZ KIVI QUSHI

Abdullayeva Nasiba Komilqizi
O`zbekiston davlat tabiat muzeyi
Tabiatmuzeyi1876@umail.uz

Annotatsiya: *Kivilar ko'krak toj suyaksiz qushlar infrasinfi, kivisimonlar turkumiga mansub yagona urug'i. Ularning hozirda 5 ta turi mavjud bo'lib, Yangi Zelandiyaning endemik turlari hisoblanadi. Kivilarning hamma turida to'rt barmoqli kuchli oyoqlar va uchida burun teshigi bo'lgan uzun tumshug'i bor. Qanotlari rivojlanmagan, dumi yo'q. Patlari ko'proq qalin jun qoplamini yodga soladi. Tashqi ko'rinishidan boshqa qushlardan farq qilganligi uchun zoolog Uilyam Karder uni "faxriy sutemizuvchi" deb atagan edi. Ushbu maqolada bu qush haqida ma'lumot olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *dastur, nar, moda, molekulyar, rovi, faol, uya, maydon, xavf.*

Uzoq vaqt davomida kivilarning eng yaqin qarindoshlari sifatida ilgari Yangi Zelandiyada tarqalgan va hozirga kelib qirilib ketgan ucha olmaydigan qush moa ko'rilar edi. Ammo 2000-yillarda kivi qushlarining to'liq mitoxondriya DNK nukleotidlarini o'rganish va uni boshqa qushlar genomi bilab solishtirish asosida kivilar tuyaqush, nandu va moadan ko'ra emu va kazuarlarga yaqin ekanligini ma'lum bo'ldi. Olimlarning qayd etishlaricha hozirgi kivilarning ajdodlari Yangi Zelandiyaga Avstralaziyadan 30 mln yil avval o'tib qolgan. Lekin bu migratsiya moalardan ancha keyin sodir bo'lgan. Molekulyar tadqiqotlarga ko'ra esa ushbu migratsiya 62 mln yil avval, ya'ni Yangi Zelandiya Gondvanadan ajralib bo'lganidan so'ng sodir bo'lgan.

Kivilar faqat Yangi Zelandiya orolida uchraydi. Shimoliy qo'ng'ir kivi Shimoliy orolda, Janubiy, katta kulrang kivi va rovi esa Janubiy orolda uchraydi. Kichik kulrang kivi faqatgina Kapiti orolida uchraydi. U yerdan uni boshqa bir qancha orollarga tarqatishgan. Tashqi tuzilishi O'rtacha kattalikdagi ushbu qushlar, hajman o'zimizning tovuqlardek keladi. Jinsiy dimorfizm rivojlangan bo'lib, modalari narlaridan yirik bo'ladi. Og'irligi 1,4 4 kg atrofida. Qanotlari reduksiya uchragan bo'lib, uning 5 sm atrofidagi o'simtasi qolgan xolos, lekin u ham patlar ichida ko'rinmaydi. Dumi yo'q. Suyaklari uchadigan qushlarnikidan farqli ravishda havo bilan to'lmagan. Ko'z o'tkirligi past, asosan eshitish va hid bilish organi rivojlangan. Tana harorati 38°C bo'lib, bu odatdagi qushlarnikidan past, sutemizuvchilarnikiga yaqin. Kividan o'ziga xos hid taralib turadi, bu esa Yangi Zelandiyada invaziv bo'lgan yangi yirtqich hayvonlar uni hididan juda osonlik bilan topib olishiga yordam beradi. Hayot tarzi Kivilar doimiy nam, doimiy yashil o'rmonlarda yashaydi. Ularning uzun barmoqlari nam, botqoq tuproqqa botib ketishning oldini oladi. Ular 1 km. kv. maydonda 45 tadan uchraydi. Odatda tunda faol hayot kechiradi. Kunduzi yerga qazigan uyalarida yashirinib yotadi. Katta kulrang kivining uyasi labirint kabi bo'lib, uning bir nechta chiqish joylari bo'ladi. Boshqa kivilarnikida esa chikish joyi bitta bo'ladi. Bir

hududda kivining 50 tagacha uyasi bo'lishi mumkin, kivilar deyarli har kuni uyasini almashtiradi. Yangi uya qazilganidan keyin kivi unga bir necha haftadan keyin kiradi. Bu vaqt orasida uyada o'simliklar va yo'sinlar o'sib, uni ko'zdan pana qiladi. Ba'zida esa uning o'zi uyasini turli o'tlar va butoqlar bilan yashiradi. Kunduzi faqatgina xavf tug'ilganda uyasini tark etadi. Tunda anchagina agressiv bo'ladigan ushbu qushlar o'z hududini raqiblaridan keskin tarzda qo'riqlaydi. Bir kivining maydoni 2 gektardan 100 gektargacha rovi kivisida bo'lishi mumkin. Kuchli oyoqlar va tumshuq kivining asosiy va xavfli quroli bo'lib, o'zaro kurash hattoki raqibning o'limi bilan tugashi ham mumkin. Odatda kivilar orasida kurash kamdan-kam holatda ro'y beradi.



Boshqa kivining uyasi yoki maydonini egallab olish odatda xo'jayin kivi o'limidan keyin kuzatiladi. Kivilar o'z maydoni kuchli qichqiriblar bilan belgilab boradi. Bunday qichqiriqlarni tunda bir necha kilometrlardan eshitish mumkin. Kivilarni ko'pchilik kamharakat va sust qushlar deb o'ylaydi, aslida ular juda faol bo'lib, tunda o'z hududidagi barcha uyalarini nazorat qilib chiqishga ulguradi. Oziqlanishi Kivilar odatda quyosh botganidan yarim soat o'tib ovga chiqadi. Ular asosan hasharotlar, molluskalar, chuvalchanglar, hamda to'kilgan rezavor va mevalar bilan oziqlanadi. Ular o'ljasini hididan topib oladi. Ba'zan esa mayda amfibiya va qisqichbaqasimonlarni ham iste'mol qiladi. Ko'payishi Kivilar monogam qushlar bo'lib, juftlik 2 3 mavsum, ba'zan esa umrining oxirigacha saqlanadi. Urug'langanidan keyin ona kivi uyasidagi daraxt idizlari ostida bitta kamdan kam hollarda ikkita oq tuxum qo'yadi. Tanasiga nisbatan tuxum qo'yish bo'yicha kivi barcha qushlarni ortda qoldiradi. Uning tuxumlari 450 g kelib, bu ona kivi massasining 1/4 qismida to'g'ri keladi. Tuxumning o'lchami 120 x 80 mm bo'lib, tarkibida boshqa qushlarnikiga qaraganda ko'p sariqlik bo'ladi 65% gacha boshqa qushlarda 35 40%. Tuxum qo'yish vaqtida ona kivi odatdagidan uch marta ko'proq oziqlanadi. Tuxum qo'yishdan 2-3 kun oldin esa oziqlanishdan to'xtaydi. Tuxumni odatda nar kivi bosib yotadi, faqatgina oziqlanish uchun chiqqan vaqtida urg'ochi kivi bilan joy almashadi. Styuart orolida uchrovchi kivilar juft bo'lib emas, balki kichik guruhlarda yashaydi. Ularning tuxumlarini nar va moda kividan tashqari guruhning boshqa vakillari ham bosib yotishi mumkin. Ba'zida esa 25 kundan keyin moda kivi yana bir tuxum qo'yadi. Tuxumning inkubatsion davri 75 85 kunni tashkil etadi. Tuxumdan polaponning yorib chiqishga 2 3 kun vaqt ketadi. Yosh kivilarning rivojlanishi:

Tuxumdan chiqqan yangi kivi mayin parlar bilan emas, balki patlar bilan qoplangan bo'ladi. Tashqi tomondan katta kivining kichik ko'rinishini eslatadi. Ota-onalari kivilar odatda

yosh kiviga g'amxo'rlik qilishlaydi, uni tuxumdan chiqishi bilanoq tark etishadi. Dastlabki 3 kunda yosh kivi oyog'ida tura olmaydi, oziqlana olmaydi. Tanasida zahira ozuqa hisobiga och qolmasdan turadi. Beshinchi kundan boshlab uyasidan chiqishni boshlaydi. ikkinchi haftaga o'tganda esa mustaqil ozuqa izlashga kirishib ketadi. Dastlabki olti hafta davomida yosh kivi faqat kunduzi ov qiladi, ana undan keyin tungi hayot tarziga o'tadi. Yosh kivilar himoyasiz qushlar bo'lib, hayotining dastlabki olti oyida ularning 90% gacha bo'lgan vakillari nobud bo'ladi, ularning 70% ini yirtqichlar yeb ketadi. Kivilar nisbatan sekin o'sadi, 4-5 yoshida to'liq katta qush hajmiga yetadi. Nar qushlar 18 oyligida, moda qushlar esa 2-3 yoshida jinsiy jihatdan voyaga yetadi. Tuxum qo'yish esa odatda 4-5 yoshidan keyin ro'y beradi. Kivilar 50 60 yil umr ko'radi. Boshqa qushlardan farqli ravishda urg'ochi kivilarning ikkala tuxumdonlari baravar ishlaydi. Ular hayoti davomida 100 tagacha tuxum qo'yadi. Kivilar hayoti uchun xavf darajasi Kivilarning yashirinib hayot kechirishi ularni kundalik hayotda uchratish imkonini qiyinlashtiradi. Olimlarning e'tirof etishlaricha ming yil avval Yangi Zelandiyada 12 mln atrofida kivi bor edi, lekin 2004 yilga kelib ularning atigi 70000 dona vakili qoldi. 1990-yillargacha kivilar populyatsiyasi Yangi Zelandiyaga Yeropadan kelib qolgan it, mushuk, laska kabi yirtqichlar tufayli hamda o'rmonlarni muntazam qisqarib borishi sababidan har yili 6% gacha qisqarib borgan. Kivilar populyatsiyasini muhofaza qilish va ularning sonini ko'paytirish, mavjud guruhlarini saqlab qolish maqsadida Yangi Zelandiya hukumati 1991-yilda maxsus dastur Kiwi Recovery Programme ishlab chiqdi. Dasturda ko'zga tutilgan kivilarni himoya qilish chora-tadbirlari tufayli ularning soni 5% dan 1991 60% gacha 1998 oshdi. Dasturning ikkinchi qismida kivilarni tutqunlikda ko'paytirish va ular tarqalgan hududlarda yirtqichlar sonini cheklash ishlari ko'zda tutilgan. Kanterberi universiteti professori Jeyms Briski 2010-yilda kivilar uchun maxsus dezodorant yaratdi. Kivilardan chiqadigan o'ziga xos hid yirtqichlarni jalb qilgani tufayli, ular yirtqichlarga osongina yem bo'lar edi. Kivining qanotlariga sepilgan maxsus ishlab chiqilgan dezodorant uning hidini yo'qotishga yordam beradi, bu esa yirtqich hayvonlar kivini osongina topib olishining oldini oladi. Ularning uchta turi janubiy kivi, katta va kichik kulrang kivilar Xalqaro Qizil kitobga kam sonli hayvonlar mezonini asosida, yangi kashf etilgan shimoliy qo'ng'ir kivi esa qirilib ketish xavfi ostidagi hayvonlar mezonini asosida kiritilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO`YXATI:

1 "kiwi". Lexico UK English Dictionary. Oxford University Press. n.d.

2 Davies, S.J.J.F. (2004). *Grzimek's Animal Life Encyclopedia* (Vol 8: Birds1. 2nd ed.). Gale. p. 89.

3 Mitchell, K. J.; Llamas, B.; Soubrier, J.; Rawlence, N. J.; Worthy, T. H.; Wood, J.; Lee, M. S. Y.; Cooper, A. (23 May 2014). "Ancient DNA reveals elephant birds and kiwi are sister taxa and clarifies ratite bird evolution" (PDF). *Science*. 344 (6186): 898–900. Bibcode:2014Sci...344..898M. doi:10.1126/science.1251981. hdl:2328/35953. PMID 24855267. S2CID 206555952. Archived from the original on 29 June 2020. Retrieved 24 September 2019.

4 *Kiwis/Kiwi - New Zealand Immigration Service (Summary of Terms)*". Glossary.immigration.govt.nz. Archived from the original on 26 April 2009. Retrieved 13 September.

5 *Kiwi*", *The American Heritage Dictionary of the English Language* (4th ed.), Houghton Mifflin, 2006, archived from the original on 23 November 2007, retrieved 14 April 2008